



1-OKTABR — O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI

• Munosabat

MAQSADLARGA ILM ORQALI ERISHAMIZ

1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida Prezidentimiz Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida soha xodimlari bilan muloqot o'tkazdi. Yurtimiz bo'ylab 40 mingdan ziyod pedagog ushbu tadbirda onlayn qatnashdi. Shu jumladan men ham ishtirok etib, davlatimiz rahbarining nutqlari orqali ta'lim sohasidagi istiqbolli masalalardan xabardor bo'ldim.

Bugun o'qituvchi va murabbiylarning mehnati shaxsan prezident nazarida ekan, bu yurtda ta'lim berishga va ilm olishga ishtiyoq kundan-kunga yuksalaveradi. Sababi mamlakatimizning eng chekka hududlaridagi o'qituvchi va murabbiylar ham islohotlar natijasini o'z hayotida seza boshladi.

Darhaqiqat, farzand dunyoga kelishi bilanoq, olamga ilm, ya'ni o'rganish nigohi bilan boqadi. Uning uchun dunyoning har bir vositasi qiziq va rang-barangdir. Go'dakning zaboni, jismi quvvatga to'lib ulgurmagani bo'lsa-da, ko'zlari va aqli dunyoni o'rganish ishtiyoqi bilan boqayotganini sezish qiyin emas. Shu sababdan ham islohotlarimizning ilk bosqichidayoq maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi.

Ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, 2017-yilda 4 mingdan ortiq mahallada birorta ham maktabgacha ta'lim tashkiloti mavjud bo'lmagan, qamrov esa 27 foizdan oshmagan. Bugungi kunda bog'chalar soni 38 mingdan, qamrov esa 78 foizdan oshdi. Bu kelajakda har bir bola aynan olamni his etish, o'rganish davrini ilmsiz o'tkazmasligidan dalolat emasmi? O'rganish ishtiyoqi bolada eng cho'qqida bo'lgan davr aynan uning zaboni va jismi takomillashayotgan davriga to'g'ri keladi. Tadbir davomida, ta'lim sohasida e'lon qilingan yangi imtiyoz va imkoniyatlar hisobiga bog'cha kirib bormagan birorta mahalla qolmasligi, qamrov ham 80 foizdan kam bo'lmasligi ta'kidlandi. Bugungi kunda yurtimizning 7 mingdan ortiq davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 120 mingga yaqin pedagog bo'lgani bilan ularning atigi 34 foizi oliy ma'lumotga ega. Mazkur muammoni hal qilish uchun davlat va xususiy bog'cha tarbiyachilarini ishdan ajralmagan holda oliygohlarda o'qitish yo'lga qo'yilib, yiliga 10 ming tarbiyachi oliy ma'lumotli bo'ladi.

Prezidentimiz e'tiborini bejiz maktabgacha ta'lim yo'nalishidan boshlamadi. Poydevor mustahkam bo'lsa, har qanday bunyodkorlikni ishonch bilan amalga oshirish mumkin. Kelajakka yo'l ham ishonch bilan boshlanadi.

—Xalqimizning kelajagi maktabdan boshlanadi. Chunki, farzandlarimizga bilim va tarbiya berishning eng uzoq davom etadigan, kerak bo'lsa, hal qiluvchi bosqichi bu — maktab ta'limidir, — dedi davlatimiz rahbari o'z nutqida.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirda yurtimizdagi maktablarda 6,5 million o'quvchi ta'lim olyapti. Bu yil maktablarni 400 mingga yaqin o'quvchi bitirgan bo'lsa, 1-sinfga 720 ming o'quvchi qabul qilingan. Shu bois, so'nggi sakkiz yilda 500 ga yaqin yangi maktablar qurilgani, mavjudlarining kengaygani hisobiga 1 million o'quvchi o'rni yaratilgan.

Har yili o'n minglab maktab o'quvchilari xorijiy til va fanlar bo'yicha xalqaro sertifikatlar olyapti. Masalan, 2016-yilgacha jami 2 ming nafar maktab o'quvchisi sertifikat olgan edi. O'tgan yili birgina xorijiy tillarning o'zidan 150 ming yoshlarimiz xalqaro sertifikatga ega bo'ldi. Endi bunday sertifikatlar maktabdagi yakuniy imtihonlarda ham tan olinishi aytiladi.

Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, taraqqiyot yo'lida ta'limning ustuvor va yetakchi ekani yurtimiz ziyolilari tomonidan hamisha eslatib kelingan masala ekanini yaxshi anglaymiz. Ammo, hamma davrlarda ham buni anglovchilar topilmasligiga ko'p bor guvoh bo'lganmiz. Bugun esa, fayzli maqsadlarimizga faqat ilm bilan erishishga jazm etgan kunlar va ulug' maqsadlarga yetaklovchi davlatimiz rahbariga tayanib bo'ladigan onlarning kelganiga barchamiz guvohmiz.

Zero, Yangi O'zbekistonda eng muhim soha — ta'lim, eng hurmatli insonlar — o'qituvchi va murabbiylardir, — deydi prezident o'z nutqida.

Feruza TOG'AYEVA,
81-umumiy o'rta ta'lim maktabi
o'qituvchisi,
"Xalq ta'limi a'lochisi" nishoni sohibi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan, Samarqand shahar 61-sonli kar va zaif eshitadigan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatining tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi Rahmatullo XUSHMATOV "MEHNAT SHUHRATI" ordeni bilan taqdirlandi. Bu nafaqat bir inson, balki, butun jamoaning yutug'idir.

Rahmatullo Xushmatov dastlab Kattaqo'rg'on pedagogika bilim yurtining tasviriy san'at va chizmachilik bo'limida, keyinchalik Toshkent davlat pedagogika institutining Badiy grafika fakultetida ta'lim oldi. 1999-yildan buyon ushbu ta'lim muassasasida ishlab kelayotgan Rahmatullo Xushmatov o'tgan davr mobaynida

uzlab shogirdlar yetishtirdi, "Kamoliddin Behzod izdoshlari" to'garak-studiyasiga asos soldi. Ustozning xizmatlari "Xalq ta'limi a'lochisi", "Xalq ta'limi fidoiyisi" va boshqa unvonlar bilan ham e'tirof etildi.

(Davomi 2-sahifada)

Hisobotlar tinglanib, tavsiyalar berildi

Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashining XIX sessiyasida ijtimoiy-iqtisodiy hayotga oid bir qator masalalar ko'rib chiqildi.

Deputatlar tasdiqlagan sessiya kun tartibiga muvofiq dastlab "Tashabbusli budget" jarayonining joriy yil 2-mavsum yakuni bilan shakllangan tadbirlarga "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" mablag'larini yo'naltirish to'g'risidagi masala muhokama qilindi.

Qayd etilishicha, tanlab olingan 20 ta loyihaga dastlab 28 846 917 ming so'm xarajat amalga oshirilishi aniqlangan. Muhokamalar davomida har bir loyiha bo'yicha xarajatlarni real summasiga aniqlik kiritilib, xarid qilinadiganlar bo'yicha fikr yuritildi.

Deputatlar shirkatlar o'rnida yangi tashkil etilgan professional boshqaruv tashkilotlar nomiga qayta rasmiylashtirayotgan kreditlar bo'yicha shahar hokimligi tomonidan kafillik berish to'g'risidagi masala yuzasidan atroflicha fikr bildirishdi.

Shahar ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i o'rinsosari M.Yakubovning shaharda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlari to'g'risidagi hisoboti deputatlarni befarq qoldirmadi. Jumladan, ayrim turdagi jinoyatlar oshib borayotgani, oldini olish mumkin bo'lgan jinoyat qayd etilayotgani jiddiy tanqid qilindi. Bu borada ichki ishlar organlarining jamoatchilik va boshqa davlat idoralari bilan amalga oshirayotgan ishlari samarasi sezilmayotgani qayd etildi.

Hisobot beruvchiga jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha tegishli tavsiyalar bildirildi.

Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi shahar bo'limi boshlig'i R.Islomovning hisoboti yuzasidan ham deputatlar saylovchilarning manfaatlari aks etgan savollarga javob olishdi. Xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, murojaat qiluvchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Sessiya davomida shuningdek, Samarqand shahar 8-oilaviy poliklinika bosh vrachi D.Normurodovning joriy yil 1-yarim yillik yakuni bilan amalga oshirilgan ishlari hamda yil yakuniga qadar mo'ljallangan ustuvor rejalari to'g'risidagi hisoboti ko'rib chiqildi.

Sessiya ishida Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashining ayrim deputatlarini deputatlik vakolati muddatidan oldin tugatildi.

Deputatlar tomonidan muhokama qilingan barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilinib, ijrosi nazoratga olindi.


AMIR ALISHER OLAMIGA SAYOHAT

yoxud ustoz, akademik Shuhrat Sirojiddinov portretiga chizgilar

O'zbek va sharq mumtoz adabiyoti haqida so'z yuritilganda dastlabki manbalarni chetlab o'tish, asl mohiyatdan chekinish, yaqin o'tmish sharqshunos va adabiyotshunoslarning asarlarini tadqiqot jarayonida bosh manba qilib olish va ularning mulohazalari asosida fikr yuritish har doim ham ko'zlangan natijani bermaydi. Keltirilgan har bir ma'lumot faqat asl va ilk manbalar asosida bo'lsagina, u chin ma'noda ilmiy qiymatga ega bo'ladi.

Shu ma'noda akademik Shuhrat Sirojiddinovning 2011-yil «Akademnashr» tomonidan chop etilgan «Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik tahlili» nomli monografiyasi Alisher Navoiy hayotini o'rganishda tub va sifat burilishi yasagan ilmiy yangilik bo'ldi.

Zero, muallif buyuk ajdodimiz haqida ma'lumot beruvchi O'ZR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan arab yozuvida va asosan, fors tilida bitilgan asl manbalarni sinchiklab o'rganib chiqqan. Ishda



Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Davlatshoh Samarqandiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro, Husayn Koshifiy, Atulloh Husayniy, Bobur, Muhammad Haydar Mirzo kabi yigirmadan ortiq ziyolining 83 qo'lyozma asarining tadqiqot doirasiga tortilganligi, ularni sinchiklab, qiyoslab, so'ngra ma'lumot sifatida keltirilganligi ham shundan dalolat beradi.

(Davomi 3-sahifada)

Ta'lim, ayniqsa, maktabgacha va maktab ta'limi barcha davrlarda ham ko'pchilikning e'tiborida bo'lib kelgan. Bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bu soha doimiy e'tiborda bo'lish barobarida unda ko'plab yangiliklar, islohotlar amalga oshirilmoqda.

Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i Muzaffar Hamdamovga murojaat qilib ularning ayrimlari haqida bilib oldik.

— **Muzaffar Yazdanqulovich, Konstitutsiyamizning 50-moddasida "davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlashi" belgilangan.**

Ayni paytda boshqa hujudlar qatori Samarqandda ham xususiy maktablar ko'payib bormoqda. Tabiiyki, ularda har bir tarbiyalanuvchi uchun muayyan miqdorda oylik to'lovlar mavjud. Bu esa Bosh qonunimizda belgilangan yuqoridagi normaga zid emasmi?

— Asosiy qonunimizning 50-moddasida davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlashi belgilangan. Shu bilan birga, mazkur moddada davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlashi ham nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, "Ta'lim to'lovlarida"gi qonunning 9-moddasida nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta va o'rta-maxsus ta'lim to'lov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Yurtimizda bepul umumiy o'rta ta'lim kafolatlangan va bolalarning davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishiga barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Shu bilan bir qatorda, ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatishni xohlaydigan tadbirkorlar uchun ham nodavlat umumiy o'rta ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanish uchun ham imkoniyatlar mavjud.

Qayd etish lozim, xususiy ta'lim tashkilotlarining faoliyat yuritishi yuqoridagi konstitutsiyaviy kafolatga zid hisoblanmaydi. Chunki, ular davlat tomonidan taqdim etiladigan bepul ta'lim tizimini almashtirmaydi, balki, fuqarolar uchun qo'shimcha tanlov imkoniyatini yaratadi. Ota-onalar yoki qonuniy vakillar o'z xohishiga ko'ra farzandi uchun davlat maktabini yoki xususiy maktabni tanlashi mumkin. Bu zarurat emas.

XUSUSIY MAKTAB KONSTITUTSIYAGA ZID EMAS

chunki ular zarurat yo majburiyat emas, tanlov imkoniyati

Ya'ni, xususiy maktablarning bo'lishi Konstitutsiyadagi "bepul umumiy o'rta ta'lim kafolati"ni buzmaydi, asosiy huquq — bepul ta'lim olish imkoniyati davlat maktablari orqali amalga oshiriladi.

— **Umuman, xususiy umumta'lim maktablarida oylik to'lovlar qaysi mezonlar asosida belgilanadi? Bu jarayonni tuman (shahar) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari yoki viloyat boshqarmasi nazorat qila oladimi? Xususiy maktablardagi ta'lim sifatini-chi?**



— Bugungi kunda Samarqand viloyatida 49 ta xususiy maktab mavjud. Ular qonunchilikda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Jumladan, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda viloyat boshqarmasi tomonidan nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining faoliyati, ularning belgilangan litsenziya talablari va shartlariga rioya qilishini nazorat qilish Prezidentimizning 2022-yil 13-sentabrdagi PQ-374 son qarorida belgilangan tartibda amalga oshirilmoqda.

Qayd etish lozim, xususiy maktablarning to'lov miqdorlari mustaqil ravishda belgilanadi. Zero, "Ta'lim to'lovlarida"gi qonunning 31-moddasi yettinchi bandida nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan o'quv dasturlari bo'yicha

o'qitish ta'lim oluvchi yoxud ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari va nodavlat ta'lim tashkiloti o'rtasida tuziladigan, o'qitish muddatlari, shartlari va to'lovlari, tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa shartlar belgilanadigan shartnoma asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Shu sabab nodavlat ta'lim tashkilotlari ta'lim berish to'lovlari mustaqil ravishda, shartnoma asosida belgilaydi.

— **"Umumta'lim maktablarini darsliklar va o'quv-metodik**

qo'llanmalar bilan ta'minlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorga ko'ra, darsliklarni to'liqsiz to'plamda ijaraga berishga yo'l qo'yilmaydi.

Ammo, ayrim hollarda bu qoida amalda ishlamaydi. Misol uchun, o'tgan o'quv yilining o'rtalariga kelib, Samarqand shahridagi 81-maktabda darsliklar yetishmasligi ijtimoiy tarmoqlarda yoritilgan.

Joriy yilda bunday holat qaytarilmaydimi?

— Adliya vazirligi tomonidan 2014-yil 28-aprelda ro'yxatdan o'tkazilgan "Umumta'lim maktablarini darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 1-bob 2-bandiga asosan "umumta'lim

maktablarining birinchi sinf o'quvchilari uchun darsliklar har yili, 2—4 sinflar uchun ikki yilda bir marta va 5—9-sinflar uchun to'rt yilda bir marta yangilanishi belgilangan.

Mazkur nizomning 4-bob 51-bandiga asosan "Darsliklar yoki o'quv-metodik qo'llanmalardan foydalanish usulidan qat'i nazar, ular yo'qolgan yoki foydalanishga yaroqsiz holatga kelib qolgan taqdirida, o'quvchining ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yoxud homiyar yoki o'qituvchilar zararni xuddi shunday darslik yoki o'quv-metodik qo'llanma bilan qoplaydi yoki uning birlamchi hujjatlarda (hisob-fakturada, yuk xatida) ko'rsatilgan qiymatini to'laydi.

Lekin yo'qotilgan darsliklarning o'rnini qoplashning imkoniyati mavjud emas.

Shuning uchun umumiy o'rta ta'limi maktabi rahbariyati tomonidan mazkur darsliklarning nusxalari chop etilib, darsliklar to'plamlarini to'liq holatga keltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

— **Amaldagi tartibga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari uchun yagona majburiy maktab formasini joriy qilish haqidagi tartib bekor qilingan.**

Lekin bu masala har yili ko'plab muhokamalarga sabab bo'ladi. Siz bu haqda nima deysiz?

— Vazirlar Mahkamasining "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini zamonaviy yagona maktab formasini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 666-sonli qaroriga Hukumatning o'zini 558-sonli qarori bilan o'zgartirish kiritilgan. Ya'ni, davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarida belgilangan shakllardagi yagona maktab formasini bosqichma-bosqich joriy etilishi belgilangan. (Izoh: aniq muddati, ya'ni aniq qachon joriy etilishi belgilanmagan).

"Ta'lim to'lovlarida"gi qonunning 48-moddasida ustav (ta'lim hujjati) talablariga, ichki tartib-qoidalariga, vaqtincha yashash joylari qoidalariga va ta'lim faoliyatini tashkil etish hamda

amalga oshirishga oid boshqa ichki hujjatlar talablariga rioya etish ta'lim oluvchilarning majburiyatlaridan biri etib belgilangan.

Shu bois, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 31-avgustdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining takomillashtirilgan namunaviy odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 282-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining takomillashtirilgan namunaviy odob-axloq qoidalari" to'g'risidagi nizomining 15-bandiga muvofiq, ta'lim muassasasi ustavida man etilgan libos va qiyofada, jumladan o'g'il bolalar kalta shim, futbolka, shippakda va qiz bolalar kalta, tor va tanani ochiq ko'rsatuvchi yupqa (harir) kiyimda kelishi hamda bo'yni va barmoqlariga turli xil taqinchoqlar taqishi ta'qiqlangan.

Ya'ni, yagona maktab formasini joriy qilinmadi, degani umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari maktabga xohlagan kiyimda borishi mumkinligini bildirmaydi.

— **Muzaffar Yazdanqulovich, shu o'rinda yana bir savol — Vazirlar Mahkamasining 2021-yildagi qaroriga ko'ra, 2025/2026-o'quv yiliga qadar umumiy o'rta, o'rta-maxsus va professional ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o'qituvchilari kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozimligi belgilangan.**

Jarayon qanday kechmoqda?

— Hozirgi kunda viloyatda jami 5506 nafar xorijiy til o'qituvchisi faoliyat olib bormoqda. Shundan 3685 nafari (66,9 foiz) da milliy va xalqaro darajadagi sertifikat mavjud.

Milliy va xalqaro darajadagi sertifikatlari mavjud bo'lmagan 1821 nafar o'qituvchilarni joriy yilning sentabr oyi davomida tuman (shahar) lar kesimida Samarqand davlat chet tillari institutining professor-o'qituvchilari bilan birgalikda milliy va xalqaro sertifikatga ega bo'lishlari uchun o'quv-seminarlar tashkil qilindi.

Joriy yilning 28-avgust kuni Davlat test markazi tomonidan milliy sertifikat uchun test jarayonlari tashkil etildi. Oktabr oyida chiqishi kutilayotgan test natijalaridan so'ng viloyatdagi sertifikat olgan o'qituvchilar soni 83 foizga ko'tarilishi prognoz qilinmoqda.

— **Mazmunli suhbat uchun rahmat!**
— Salomat bo'ling!

Y. GADOYEV suhbatlashdi.

Kasbga sadoqatning natijasi

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

— Rahmatullo aka nafaqat bilimli, balki, haqiqiy fidoyi inson, — deydi maktab direktori Gulyara Irgasheva. — Ularning mehnati tufayli bugun o'quvchilarning nafaqat tasviriy san'at, balki, jamiyatda o'z o'rnini topishga intilmoqda. Prezidentimizning bu e'tibori bizni juda xursand qildi va yangi marralarni zabt etishga ilhomlantirdi. Ustozga berilgan bu mukofot butun jamoamizga berilgan yuksak bahodir.

Maktab direktori Rahmatullo Xushmatovning fidoyiligi va shogirdlarga bo'lgan sadoqati haqida ilhomlanib so'zlar ekan, ustozning yondashuvi tufayli internatdagi o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, san'at va kasbiy ko'nikmalari sezilarli darajada yaxshilanib, bugungi kunda ularning bir qismi nufuzli oliygohlarda ta'lim olishayotgan bo'lsalar, boshqalari tasviriy san'at sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib boshlayotganini ta'kidladi.

— 47 yillik pedagogik faoliyatim, mehnatimning shunday ulug' mukofotga loyiq ko'rilganini ko'rib, "bekorga yashamabman", degan jo'shqin fikr keldi qalbiga, — deydi Rahmatullo Xushmatov. — Bu mukofot menga ulkan mas'uliyat, qolaversa, yangi marralarni zabt etishga undaydi. Kelajak avlod bizing qo'limizda. Ular kelajakda yurt ravnaqi uchun munosib hissa qo'sha olishlari uchun biz, o'qituvchilar tinimsiz izlanishimiz kerak.

Rahmatullo Xushmatov faoliyati davomida alohida ta'limga ehtiyojli bor bolalar bilan ishlashda ulkan tajribaga ega mutaxassis hisoblanadi. U 61-maktab-internatda faoliyatini boshlaganda, surdopedagogika va defektologiya bo'yicha

mutaxassislar deyarli yo'q, bolalarga dars berish oson emas, hatto qiyin vazifa edi. Vaziyatdan chiqish uchun Xushmatov kutubxonalaridan maxsus adabiyotlar topib, imo-ishora tilini o'zlashtirdi. Keyinchalik esa boshqa hamkasblari bilan malaka oshirish kurslarida tajribasi va metodikasini oshirdi.

— Bugunga kelib o'quvchilarning faqat hunarmandchilik bilan cheklanib qolmay turli sohalarida muvaffaqiyatga erishganligini ko'rib ko'zim quvonadi, — deydi suhbatdoshimiz. — Ular zamonaviy kasblarni ham egallamoqda. Biroq, bolalarni bu darajaga olib chiqish uchun o'qituvchidan sabr, qat'iyat va izlanish talab etiladi. Ba'zan bir harakatni o'rgatish uchun haftalab vaqt kerak bo'ladi. Lekin har bir kichik qadam — katta yutuq. Bugun maktabimizda matematika, fizika, hatto musiqa ham o'qitiladi. Faqat chet tili o'rniga eshitish qobiliyatini rivojlantirish fanlari maxsus metodika asosida olib boriladi. "Zamin" fondi yordamida maktabimizning barcha o'quvchilari eshitish uskunali bilan ta'minlangani bolalarga ta'lim berishdagi imkoniyatlarimizni ancha oshirdi.

Ustozning ta'kidlashicha, alohida ta'limga ehtiyojli bor bolalar bilan ishlash metodikasining asosiy maqsadi — faqat ta'lim-tarbiya berish emas, balki, ularni jamiyat a'zosi ekanliklarini his qilishini ta'minlashdan iborat. Ularning ham boshqalar qatori imkoniyatlari bor, faqat to'g'ri yondashuv va e'tibor zarur. Aks holda, ular jamiyatdan chetlashib qolishi yoki ortiqcha g'amxo'rlik natijasida mustaqillikni yo'qotishi mumkin. Shu bois, maktabda ota-onalar bilan ham muntazam tushuntirish ishlari olib boriladi. 9-sinfdan

keyin o'quvchilar uchun hunar va zamonaviy kasblarni o'rganish imkoni yaratilgan. Ba'zilar oliy ta'limga tayyorlansa, ba'zilar kasb-hunar va dasturlash kabi zamonaviy fanlarni o'rganadi.

— Kelajakda imkoniyati cheklangan bolalar ham oddiy maktablarda ta'lim olishlarini ta'minlash uchun OTMLarda barcha bo'lajak pedagoglarga defektologiya, surdopedagogika va shu kabi yo'nalishlar asoslari o'qitilishi zarur, — deydi R. Xushmatov ta'lim sohasiga oid o'z taklifini bildirib. — Ya'ni, har bir umumiy fan o'qituvchisi imkoniyati cheklangan o'quvchiga dars o'ta olishi kerak. Bu faqat maxsus fakultet bitiruvchilarining vazifasi bo'lmagligi lozim. Shu ish amalga oshirilsa inklyuziv sinflar samaradorligi ham oshadi.

Suhbatimiz so'ngida suhbatdoshimiz sabr, matonat va izlanish bo'lmasa, ustozlik mushkul kasb ekanligini ta'kidladi. Uning nazariya, o'qituvchi nafaqat dars o'tuvchi inson, balki, jamiyatni shakllantiruvchi, kelajakni tarbiyalovchi buyuk kuchdir.

Rahmatullo Xushmatov nafaqat san'at ustasi, balki, maxsus pedagogika sohasida o'z bilimini amalda sinab ko'rgan, hamkasblariga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi yetakchi mutaxassis ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning shogirdlari orasida o'z yo'lini topib faoliyat olib borayotgan, oliy ta'limda o'qiyotgan, kasbga ega bo'lganlari ko'p. Bu esa maktab ishining ijobiy natijasini tasdiqlaydi. Ustozlik sharafi va mas'uliyatini o'z yelkasida ko'tarib kelayotgan bunday insonlar bor ekan, ta'lim tizimining kelajagi albatta nurafshon bo'ladi. Prezident mukofoti esa bu fidoyilarning mehnatiga berilgan munosib bahodir.

Bekzod MUSURMONOV



INKLYUZIV TA'LIMDA PSIXOLOGNING O'RNI

Bugungi kunda jamiyatning har bir a'zosini to'laqonli ta'lim-tarbiyaga jalb qilish inson huquqlari va ijtimoiy tenglik prinsiplariga asoslanadi.

Inklyuziv ta'lim alohida e'tiborga muhtoj bolalar uchun ta'lim olishga imkoniyat. Bu yondashuvda har bir bola individual ehtiyojlari asosida rivojlanish huquqiga ega. Ta'lim muassasalarida esa bu kabi o'quvchilar bilan ishlashda psixologik yondashuv zarur.

Inklyuziv ta'limda faoliyat yurituvchi psixologning roli bir nechta muhim yo'nalishlardan iborat. Psixolog har bir bolaning psixologik holati, rivojlanish darajasi, emosional ehtiyojlarini aniqlaydi. Bu ma'lumotlar asosida o'qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlikda individual yondashuv shakllantiriladi.

Alohida e'tiborga ega bolalarning jamoadagi o'rni, o'zini tutishi, hissiy holati ustida doimiy ravishda ishlash, ularga mos muhit yaratish psixologning asosiy vazifalaridan biridir.

Ota-onalarning farzandlariga bo'lgan munosabatini to'g'ri shakllantirish, ularga psixologik maslahatlar berish va uyda ham inklyuziv yondashuvni qo'llashni targ'ib qilish psixologning muhim vazifalaridan biridir.

Maktabda nafaqat e'tiborga ega bola, balki, sinfdagi barcha o'quvchilarda psixologik muhit bo'lishi kerak. Shu boisdan, psixolog sinfda do'stona, qo'llab-quvvatlovchi va bag'rikeng muhit yaratishda faol ishtirok etadi.

Xulosa shuki, inklyuziv ta'lim — bu ijtimoiy adolat, insonparvarlik va taraqqiyot sari tashlangan muhim qadamlardan biridir. Har bir farzand jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi, hayotdan o'z ulushini ola bilishi uchun inklyuziv yondashuvni chuqur tushunish va amaliyotda tatbiq etish muhimdir.

Gulruh NARZIQULOVA, shahar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi bolalar psixologi

• Huquqiy savodxonlik



Ma'muriy sud haqida nimalarni bilamiz?

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi 4850-farmoniga muvofiq mamlakatimizda Ma'muriy sudlarni tashkil etish, "Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish taklifi ilgari surildi.

Shunga muvofiq O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risida"gi Kodeksi qabul qilindi. Ushbu hujjatning 3-moddasida fuqarolar, yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish haqidagi ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish va hal etishda Ma'muriy sud ishlarini yuritish talab etiladi. Ma'muriy huquqbuzarliklar yuqoridagi kodeks asosida tegishli tartibda jinoyat sudlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Huquqbuzarlik subyekti sifatida mansabdor shaxs yoki oddiy fuqaro gavdalanishi mumkin. Ushbu kodeksga binoan ma'muriy sudga fuqarolar, yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi ishlar tegishlidir.

Mazkur kodeksning 27-moddasiga muvofiq sud tomonidan hal etiladigan ishlar ko'rsatib o'tilgan, jismoniy va yuridik shaxslarning idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat boshqaruvi organlari va o'zini o'zi boshqarish organlarining qonunchilikka mos kelmaydigan, da'vogarlar manfaatlariga zid bo'lgan

qarorlari, harakatlari, saylov tizimining buzilishi va boshqa huquqiy-normativ holatlarning qo'llanilmasligi haqidagi masalalar ko'rib chiqiladi.

Oddiy qilib aytganda agar siz ma'muriy organ qarori yoki mansabdor shaxs harakatidan norozi bo'lsangiz, Ma'muriy sudlarga murojaat qilishingiz lozim bo'ladi. Jumladan, hokim qarori, soliq organlari, kadastr va arxitektura tashkilotlarining xatti-harakatlaridan norozi bo'lsangiz Ma'muriy sudlarga murojaat etishga haqlisiz. Masalan, uyingizni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun kadastr tashkilotiga murojaat etganingizda, mahkamadagilar siz taqdim etgan hujjatlarda qarama-qarshiliklar bor, deb rad etganda, soliq organi savdo do'konigizga kelib, tekshirish o'tkazgan va sizning ishtirokingizsiz dalolatnoma rasmiylashtirib, jarima qo'llash to'g'risida qaror qabul qilganida huquqingizni talab qilib boshqa sudlarga emas, bevosita Ma'muriy sudlarga murojaat etishingiz zarur.

Yuqoridagi kabi muammolarni hal etish, masalalarga uydinlik kiritish — huquqingizni qonuniy himoya qilishda Ma'muriy sudlarga hech ikkilanmasdan murojaat etishni maslahat beramiz. Ma'muriy sudlar aynan xalq manfaatini ko'zlab tashkil etilgan bo'lib, ushbu sudda ma'muriy organlarning mansabdor shaxslari o'z qarorlari uchun javob beradilar.

**Iroda MUINOVA,
shahar prokurorining katta
yordamchisi**

• Mutaxassis minbari

OYLIK DAVOM ETMOQDA

Mamlakatimizda shu yil 15-sentabrdan "Yong'indan ogohlik" umummilliy dasturi asosida navbatdagi oylik boshlandi.



15-oktabrga qadar davom etadigan oylik tadbirlari doirasida mehnat jamoalari, mahallalar, ta'lim maskanlarida yong'inlarning oldini olishga bag'ishlangan amaliy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Markazimiz tomonidan oylikni samarali o'tkazish maqsadida tuzilgan dasturga muvofiq navbatdagi tadbir Samarqand shahridagi "Family park" ko'ngilochar maskanida o'tkazildi. Jamoa a'zolari faol qatnashgan tadbirda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ko'ngilsiz voqea sodir bo'lganida to'g'ri harakat qilish talablari keng tushuntirildi.

Seminar shaklida o'tkazilgan tadbirda aholi doimo gavjum bo'ladigan bunday maskanlarda ko'ngilsizliklarning oldini olish haqida keng tushuntirishlar berildi. Ta'kidlandiki, ziyoratlik, hushyorlik bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbir mobaynida zilzila, yong'in va boshqa holatlarda qanday harakat qilish lozimligi amalda ko'rsatib berildi. Jumladan, favqulodda vaziyat jarayonida birinchi yordam ko'rsatish, yig'ilganlarni evakuatsiya qilish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish amalda namoyish etildi.

**Sanjar ADILOV,
viloyat FVB Hayot faoliyati xavfsizligi
o'quv markazi o'qituvchisi**

AMIR ALISHER OLAMIGA SAYOHAT

yoxud ustoz, akademik Shuhrat Sirojiddinov portretiga chizgilar

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

Monografiyaning bu yo'nalishda yaratilgan boshqa tadqiqotlardan farqlanuvchi hamda ustunlik tomoni shundaki, unda Alisher Navoiy haqidagi ma'lumotlar aks etgan asarlar janr xususiyatlariga ko'ra emas, balki, ulug' adib tarjimai holining asosiy jihatlari atrofida guruhlashtirilgan mazmunda qiyosiy tipologik-tekstologik tahliliga va ma'lumot mualliflarining ulug' shoir shaxsiyatiga yondashuvi masalasini o'rganish uchun ma'lumotlarning ruhiyati, mohiyatiga e'tibor qaratilgan. Bunday uslub Alisher Navoiyning ma'lum tarjimai holini aks ettirgan asl ma'lumotlarning XX asrgacha bo'lgan davriy holatini va o'zgaruv darajasini aniqlab olish imkonini berish bilan birga, mualliflarning Alisher Navoiy shaxsiga va ijodiga subyektiv munosabatlari va ularning ifodalinish shakllarini o'rganishda qulaylik tug'dirgan.

Monografiyada muallif qayd etganidek, "XX asr navoiyshunoslik uchun katta muvaffaqiyatlar asri bo'ldi. O'zbekiston jahon navoiyshunosligining markaziga aylandi". Bu davrda B.Valixoj'ayev, N.Komilov, I.Haqqulov, H.Karomatov singari olimlar salmoqli ishlar qildi.



Ma'lumki, Alisher Navoiy haqida yaratilgan tadqiqotlarning dastlabkilar ulug' adib zamondoshlari tomonidan amalga oshirilgan. Bunday asarlar shoir yashagan davridan uzoqlashgani sayin, tarixchi va kotiblarning subyektiv qarashlarini aks ettirgan. Boshqacha aytganda, ular davr ruhiga moslasha borgan. Natijada yana yuzlab badiiyashtirgan, asardan asarga ko'chib yuruvchi ma'lumotlarni takrorlaydigan kompilyativ ishlar ham maydonga kelgan. Ishda tadqiqotchi bunday manbalarda Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlarning o'zgarish darajasini aniqlagan va asl ma'lumotlarni badiiy to'qima hamda tarixiy chalkashliklardan tozalashga erishgan. Asarda Navoiyning bolalikdan keksalik davrigacha bo'lgan hayoti, u faoliyat ko'rsatgan muhit, atrofda qilargana munosabati, ilmiy, diniy-irfoniy xizmatlari bilan bog'liq g'oyat qiziqarli lavhalar beriladiki, ular kitobxonni beixtiyor o'ziga jalb qiladi.

Ilmni nina bilan quduq qazishga qiyoslaydilar. Bu bejiz emas. Ayniqsa, bu talqinni adabiyot ilmiy nisbatan qo'llash ilmingiz zalvorli yukini yana bir karra eslatib turadi. Chunki, mumtoz asarlar tadqiqotchisi ikki bosqich orasida toblanadi, ilmda o'z yo'lini topadi. Ularning birinchisida ilm yo'lga kirgan tolib mumtoz asarlar sirsasrorini egallaydi, ikkinchisida o'zi egallagan bilimlarni yoshlarga o'rgatadi, ularga tahlilga tortilgan asar mazmun-mohiyatini to'g'ri tushuntirib, ilm sari yo'naltiradi.

2022-yili o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolariga bag'ishlangan 300 dan ortiq ilmiy va o'quv-uslubiy ishlari e'lon qilingan, jumladan, 15 ta darslik va o'quv qo'llanma, 13 ta monografiya, 230 ta ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar muallifi bo'lgan Shuhrat Sirojiddinovga Samarqand shahrida o'tkazilgan MDH Parlamentlararo Assambleyasining yalpi majlisida Chingiz Aytmatov nomidagi mukofotni berish to'g'risida qaror qilindi. Olimga mukofotni Qirg'iziston delegatsiyasi rahbari Nurlanbek Shakiyev topshirdi. Bu mukofot muallifning turkiy xalqlar adabiyoti va aloqalari rivojiga qo'shgan ulkan hisssasi e'tirofidir.

Olim o'zbek va turkiy xalqlar mumtoz adabiyoti hamda Alisher Navoiy hayoti va ijodini yangicha o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Uning bir necha tilda yaratgan "Alisher Navoiy aqidalari", "Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik tekstologik tahlili", "Mir 'Ali Shir Navoi' the Great", "Navoiy

navosidan bahra olib", "Navobaxsh baytlar jozibasini", oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan "Navoiyshunoslik" darsligi, "Amir Alisher", "Ilm va taxayyul sarhadlari", "Navoiy zamondoshlari e'tirofida" kabi asarlari shular jumlasidan. Bundan tashqari, matnshunoslikka oid "Matnshunoslik saboqlari", "O'zbek matnshunosligi qirralari", shu bilan birga, "Hijriy va milodiy yillarni o'zaro tabdil qilish usullari", "Islom falsafasiga kirish: Kalom ilmi", "O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari", "XV-XVI asrlar tarixiy va tazkira-esdalik asarlarida Alisher Navoiy hayoti va faoliyati talqini", "Religii mira", "Mavlono Lutfulloh", "So'fi Olloyor ilohiyoti", "She'riyatda inson ruhiy kamoloti talqini", "O'rta osiyolik allomalarning falsafiy qarashlari", "Bag'rikenglik dinlarning ma'rifiy asosi" va "Badiiy tarjima asoslari" kabi bir qator asarlari navoiyshunosligimiz yutug'i bo'ldi.

Ayni damda Shuhrat Sirojiddinov dunyoning o'nlab mamlakatlari Fanlar akademiyalari, Ilmiy kengashlari a'zosi, O'zbekiston Respublikasi Atamashunoslik komissiyasi raisi o'rinbosari, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi hisoblanadi.



Shuhrat Sirojiddinovning 2023-yilda Toshkentda "Adabiyot" nashriyatida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida chop etilgan "Amir Alisher. Hayoti va faoliyati" kitobi Navoiy ijodini o'rganish borasidagi ishlarni yana bir pog'ona yuqoriga ko'tardi, deyish mumkin. Kitob ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi Alisher Navoiyning yoshligi — 1441—1469 yillarni qamrab oladi. Bunda Alisher Navoiyning ota-bobolari, yigitlik davri, do'stlari, ustozlari, mol-mulki, bunyodkorlik faoliyati, Samarqanddagi hayoti, Sulton Husayn, Abu Said Mirzolarga munosabati yoritib berilgan. Asarning "Amir Alisher va saroy", deb nomlanuvchi ikkinchi qismi esa Navoiyning Samarqanddan Hirotda qaytishi, muhrdorlik, amirlik faoliyati, Astrobodda hokimligi, Majiddiddin Muhammad va Nizomulmulklar orasidagi munosabatlar, qurdirgan inshootlari, uning homiyligi va taklifi bilan yozilgan asarlar to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Ularning ko'pchiligi yangi ma'lumotlar ekanligi bilan adabiyotshunoslar diqqat e'tiborini tortmoqda.

Kitobda Alisher Navoiyning ijodkor, davlat arbobi, vatanparvar, xalqparvar inson ekanligi ilmiy manbalar asosida isbotlab berilgan. Darhaqiqat, muallif to'g'ri ta'kidlaganidek, Hazrat Navoiy garchi hayotining mazmunini ijod qilishda, deb bilsa ham, davlat va xalq manfaatini o'ylab, xalq osudaligi yo'lida sulton yonida turib muhim davlat ishlarini bajardi. Navoiy Bosh vazir sifatida uzoq yillar davlat boshqaruvining eng muhim va nozik bo'g'inlarida tashqi diplomatik aloqalar, ichki nizolar, chegara muammolari, umumxalq yig'inlari va tadbirlarda davlat va xalq manfaatlarini uyg'unlashtirdi hamda himoya qildi. Hazrat Navoiy davlat xizmatini mansab-obro' uchun emas, balki, millat qadriyatlarini tiklash, butun dunyoga tan oldirishdek ulkan vazifani amalga oshirish uchun bir imkoniyat va vosita deb bildi.

"Amir Alisher" asarida Navoiy va Abu Said, Navoiy va Majiddiddin munosabatlariga oid haqiqat va uydirmalarni, Navoiyning Astrobodga surgun qilingani haqidagi qarashlar uydirma ekanligini, shuningdek, Navoiyning Mashhadagi hayotini ishonchli ilmiy manbalar asosida yoritib beradi.

Kitobga muallifning oldin e'lon qilingan ishlariga muayyan sabablarga ko'ra kirmay qolgan yangi ma'lumotlar qo'shilgan. Sulton Husayn Boyqaroning maktubi bilan bog'liq faktlar, Navoiyning nega oila qurmaganligi

va tog'asi Mir Said Kobuliy nima uchun "Kobuliy" nisbasini olganligi haqidagi fasllar ayni shu siraga mansub.

Aniqlashtirish nuqtayi nazaridan qo'shimcha izlanishlarni talab qilgan va shu bois avvalgi tadqiqotlariga kirmay qolgan masalalarga aniqliklar kiritilgan.

O'zbek va turkiy dunyoning mashhur siymosi hayoti va faoliyatini to'g'ri talqin etgani, jiddiy ilmiy asoslarga tayanib yaratilgan va turkiy o'lam ma'naviyatini namoyon etishi kabi sabablar tufayli "Amir Alisher" asari tezda ilm ahli orasida keng yoyildi, dillarga manzur bo'ldi. Asar xalqaro miqyosda ham e'tirof etilib, turli tillarga tarjima qilindi va bu jarayon hali ham davom etmoqda. Jumladan, 2023-yil Gulbahor Ashurova tomonidan Ozarbayjon tiliga o'girilib Bakudagi "Elm va tahsil" nashriyatida chop etildi. "Amir Alisher" Ozarbayjonda dong taratgach, tezda Turkiyadagi adabiyotshunoslar e'tiborini ham tortdi. Bu kitob 2023-yil Bulent Bayram tomonidan Turkiya turkchasiga ham o'girildi va Anqaradagi mashhur "BENGÜ YAYINLARI" nashriyatida bosilib chiqdi.

"Amir Alisher"ning keyingi safari sehrlı diyor — Amerikaga bo'ldi. Kitob 2024-yil



ingliz tiliga "Emir Ali-Shir Navoi" nomi bilan tarjima qilinib, New Jersey dagi "Lightning Press" matbaasida yuksak poligrafik talab va mezonlarga mos holda nashr etildi. Shu ma'noda, o'zbek navoiyshunosligining muhim yutuqlaridan biri bo'lgan "Amir Alisher" kitobi nafaqat Amerika adabiyotshunosligi, balki barcha ingliz tilida muloqot qiluvchi ziyolilar e'tiboriga havola qilindi, deyish mumkin.

Bu boradagi e'tiborli yutuqlardan yana biri 2024-yilda "Amir Alisher" asarining Kobuldagi "Xuroson" bosmoxonasida arab alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvida chop etilishi bo'ldi. Kitob Ehsonullo Quvonch tomonidan nashrga tayyorlandi va "Kitob madaniyat markazi" ko'magida nashrdan chiqdi. Ta'kidlash kerakki, ushbu nashr Afg'onistondagi o'zbeklar uchun ulkan tuhfa bo'ldi.

Asarning 2025-yilda Shahlo Noraliyeva tomonidan qozoqchaga o'girilib, Chimkentda nashr etilgani esa Alisher Navoiy tavalludining 584 yillik to'yiga munosib to'yona bo'ldi.

Muxtasar qilib aytganda, "Amir Alisher" tadqiqotining jahonning turli tillariga tarjima qilinishi, avvalo, o'zbek navoiyshunosligi uchun katta yutuq va yangilik bo'ldi. Shuningdek, ushbu voqea yana ikki muhim vazifani bajarish uchun xizmat qiladi, deyish mumkin. Ulardan biri shuki, o'zbek xalqi, butun turkiy xalqlar tamsilchisi bo'lgan Alisher Navoiyning dunyo ziyolilari orasida, xalqaro miqyosida munosib e'tirof topishi va bu zot haqidagi asl haqiqatlarni ulashishi nuqtayi nazaridan jiddiy ilmiy qadam bo'ldi.

Amir Alisherning o'zi "Olibmen taxti farmonim"ga oson, Cherik chekmay Xitodin to Xuroson", deya ta'kidlaganidek dunyo ziyolilari orasida turkiy xalqlar o'tmishi va o'zbekona madaniyatni targ'ib etish asosida Yangi O'zbekistonning ijobiy imijini shakllantirishga, ichki imkoniyatlarini yanada jozibador qilib ko'rsatishga yordam beradi. Xorijiy davlatlarda O'zbekiston tarixi va madaniyati, o'zbek tili va adabiyotini o'rganishni keng targ'ib qiladi, mamlakatimiz nufuzini oshirishga ko'maklashadi. Shu saviyadagi ilmiy tadqiqotlarning yanada ko'payishi esa, aloqibat, Vatanimiz sharafini yuksaltiradi, ham madaniy, ham iqtisodiy farovonlikka zamin yaratadi.

**ERKIN MUSURMONOV,
Samarqand davlat chet tillar
instituti
qiyosiy adabiyotshunoslik
kafedrası mudiri.**

Yonimizdagi odamlar

ILMDA CHIROQ, HAYOTDA RAHNAME

Ko'plab insonlar hayotida yo'lbo'shchi ustozlarning ahamiyati va o'zni bo'lakcha. Ular nafaqat ilm va ma'rifat olamiga, balki, hayotning turli sohalarda rahnamo bo'lib, to'g'ri yo'l topishda yordam berishadi. Ana shunday yo'lchi yulduzlardan biri bo'lgan filologiya fanlari doktori, professor Shaxriyor Safarovning nomi Respublikamizdan tashqarida, xalqaro tilshunoslik hamjamiyatiga ham yaxshi tanish.

Zotan, domla muntazam xorijiy o'quv yurtlarida ma'ruzalar o'qimoqda. Jumladan, 2012-yil sentabr oyida Yaponiyaning Sukuba universiteti magistrleri uchun sosiolingvistik muammolariga oid ma'ruzalar o'qidi va seminar tashkil qildi. 2014-2015-yillarda Shanxay xalqaro tadqiqotlar universitetida "Markaziy Osiyoda til muhiti" mavzusida va 2015-2016-yillarda Shanxay universiteti Xalqlar diplomatiyasi institutida "Educational system of Uzbekistan" va "Famous scholars of the ancient Central Asia", mavzularida ma'ruzalar o'qidi.

Aslida domla 1946-yil sentabrda Urgut tumanida tug'ilgan. 1968-yilda Samarqand davlat universitetini qizil diplom bilan bitirgach, ingliz filologiyasi kafedrasida o'qituvchilik faoliyatini boshlagan. Ilmga tashnligi uni tez orada Leningradga yetakladi. 1970-1972-yillarda u yerda stajirovka va aspiranturani o'tab, qadimgi german tillarining tuzilish xususiyatlariga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Vatanga qaytgach Samarqanddagi Sadridin Ayniy nomidagi pedagogika institutida ingliz tili kafedrasiga rahbarlik qilib, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ilmiy izlanishlarini davom ettirdi.

Shuningdek, kafedraning o'quv jarayonini samarali tashkil etish, chet

tillarini o'qitish amaliyotini rivojlantirish, zarur adabiyotlar bilan ta'minlashni e'tibordan chetda qoldirmadi.

1991-yil oktabrda Sankt-Peterburg universiteti huzurida «Nutqiy muloqotning etnososiopragmatikasi» («Этносоциопрагматика речевого общения») mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Unda ingliz, rus, o'zbek va tojik tillaridagi muloqot tizimining lisoniy, madaniy va etnopsixologik jihatlarini qiyosiy tahlil qilindi. Shu asosda olimga filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi berildi, 1993-yilda esa u professor unvoniga sazovor bo'ldi.

1992-2005-yillarda professor Safarov Samarqand davlat universitetida turli lavozimlarda ishlab, mintaqaviy til o'rgatish markazi direktori, kafedra mudiri, xalqaro aloqalar markazi rahbari va prorektor sifatida faoliyat yuritdi. Bu davrda uning tashabbusi bilan universitet Milan, London, Alborg, Barselona, Dublin va Boloniya universitetlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi, Yevropa Ittifoqi grantlari jalb etildi. Universitetning bir qator bo'limlari zamonaviy jihozlar bilan ta'minlandi, ilmiy salohiyati yangi bosqichga ko'tarildi.

Shaxriyor Safarovning tashkilotchilik qobiliyati va rahbarlik mahorati e'tiborsiz qolmadi: 2005-yilda u Samarqand davlat chet tillar instituti rektori etib tayinlandi. 2012-yilgacha davom etgan bu davr mobaynida institutning xalqaro nufuzi yanada ortib, 20 dan ziyod nufuzli xorijiy ta'lim va ilmiy muassasalar bilan shartnomalar imzolandi, yirik xalqaro anjumanlar o'tkazildi. Shuningdek, ilk bor roman-german tillari bo'yicha dissertatsiyalar himoyasi uchun ixtisoslashgan kengash tuzildi. Institut mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan malakali kadrlar tayyorlaydigan ilmiy markazga aylandi.

Bugungi kunda professor Safarov



semantika, kognitiv tilshunoslik, pragmalingsvistika, diskurs va tarjimashunoslik sohalarda e'tirof etilgan nufuzli olimlardan biridir. Ko'p qirrali olim sifatida «Pragmalingsvistika», «Til nazariyasi va lingvometodologiya», «Kognitiv tilshunoslik», «Lingvistik diskurs», «Semantika», «Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari» singari monografiyalari, «Tilshunoslik terminlari lug'ati» kabi ishlari hamda ikki yuzdan ortiq ilmiy maqolalari respublikamiz va xorijdagi tilshunolar va yosh tadqiqotchilar uchun qo'llanmaga aylangan, «pragmalingsvistika», «kognitiv tilshunoslik» yo'nalishlarining O'zbekistonda shakllanishi va rivojlanishi ko'p jihatdan aynan uning nomi bilan bog'liq.

Tilshunoslik bu nafaqat grammatik qoidalar va tizimlar majmui, balki, inson tafakkuri va jamiyatning yuksalishini ifoda

etuvchi tuzilma, deb ta'kidlaydi ustoz. Shu bois, uning diqqat markazida tilning yetuklikka intilishi, uning shakllanish bosqichlari va milliy adabiy tilning taraqqiyoti kabi masalalar turadi. Zero, til nafaqat muloqot vositasi, balki, xalq ma'naviyatining oynasi, tarix va zamonlar osha insonning ma'naviy kamolotini aks ettiruvchi beqiyos boylikdir. Shaxriyor Safarov uchun tilshunoslikning vazifasi ana shu jarayonlarni anglash va ular orqali hayotning o'zini teranroq tushunishdan iborat.

«Olimning haqiqiy qiymati u tarbiyalagan shogirdlar soni bilan belgilanadi. Maktabi va izdoshlarisiz olim hosil ber maydigan daraxtga o'xshaydi», deydi ustoz. Uning fikricha, ilmiy mehnat bilim va tajriba yoshlarga o'tgan taqdirdagina to'liq ma'no kasb etadi. Ilk shogirdlarning Leningradga ilmiy ishlarini himoya qilib, hozirda Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Tojikiston, Dog'iston, Qoraqalpog'iston va, albatta, O'zbekistonning turli shaharlarida faoliyat olib borishlari ushbu fikrning yaqqol dalilidir.

Olimning ilmdagi izlanish yo'li ham o'ziga xos ma'noga ega. Uning ta'kidlashicha, fan doimo rivojlanib, yangilanib boradi, yangi g'oya va yo'nalishlar vujudga keladi. Shu sababli u ilmiy izlanishlarini kognitiv tilshunoslik va pragmalingsvistika sohalariga qaratdi. Zero, zamonaviy tilshunoslikning asosiy e'tibori til va insonning o'zaro bog'liqligini o'rganishga qaratilmoqda. Pragmalingsvistika insonning tildan qanday foydalanishini o'rgansa, kognitiv tilshunoslik inson idrok etgan va anglagan tushunchalarning so'zga aylanish jarayonini tadqiq etadi. Olimning fikricha, tafakkur va

til bir-biridan ajralmas tushunchalar bo'lib, aynan shu uyg'unlik asosida so'z, ibora va matn yaratiladi hamda insonlar o'rtasida muloqot yuz beradi.

Tadqiqotlarida inson va til munosabatini o'rgangan olim, amaliyotda ham madaniy aloqalarni mustahkamlashga katta hissa qo'shdi. So'nggi yillarda professor Safarov xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirishga faol hissa qo'shib kelmog'ida. Samarqand davlat chet tillar instituti qoshidagi Konfusiy instituti direktori sifatida u O'zbekistonda xitoy tili va madaniyatini ommalashtirish yo'lida ko'p ishlar qildi. Uning tashabbusi bilan Samarqand viloyatining olis hududlarida xitoy tili markazlari tashkil etildi, Urgut tumanida esa uning nomi bilan atalgan kutubxona ochildi. Bu qadamlar xalqar o'rtasida do'stlik ko'prigiga aylandi. 2024-yilda esa professor Xitoy Xalq Respublikasi tomonidan «10 yillik xizmati uchun» esdalik medali bilan taqdirlandi. Bu uning madaniy va ta'limiy muloqot rivojiga qo'shgan ulkan hissasi berilgan yuksak bahodir.

Ustoz va bobo timsoli sifatida esa u yanada ulug'vor ko'rinadi. Ilm yo'lida yurgan yetuk olim, talabalar uchun mehribon ustoz bo'lish bilan birga, oilaparvar inson sifatida ham barchadan izzat topgan. Uch farzandni voyaga yetkazib, ularni turli sohalarda jamiyatga munosib qilib tarbiyaladi. Ayniqsa, o'rtancha o'g'li Bahodir Safarov otasining an'anasini davom ettirib, iqtisod fanlari doktori, professor sifatida Samarqand davlat universitetida faoliyat olib bormoqda. Ustozning nevara va chevaralari ham oliy ma'lumotli, turli sohalarda o'z o'rnini topgan. Ular uchun Shaxriyor aka faqat olim emas, balki, hayot maktabini o'rgatuvchi, mehribonlik va tajriba chirog'ini ulashuvchi bobodir.

G'aybullo MIRSANOV, SamDCHTI professori

«Рязанские смотрины» самаркандского звездочета

Самаркандский областной театр кукол принял участие в XX международном фестивале театров кукол «Рязанские смотрины».

В мероприятии приняли участие кукольники из двадцати стран, среди которых представители России, Узбекистана, Казахстана, Бразилии, Китая, Индии. Самаркандский

областной театр кукол представил на российской сцене постановку «Али Кушчи», посвященную самаркандскому ученому-астроному, соратнику великого Мирзо Улугбека. Благодаря тонким сценическим приемам юные зрители вместе с легендарным звездочетом прошлись по улицам древнего Самарканда, заглянули в глубины космоса, осознали



грандиозный вклад мыслителя в науку. За эту работу самаркандский творческий коллектив получил главный приз за лучшую актерскую работу.

На торжественной церемонии закрытия фестиваля все

участники и партнёры «Рязанских смотрин—2025» получили именные дипломы-грауоры, созданные заслуженным художником Российской Федерации М. Шелковенко и другие эксклюзивные призы.

Ба неш рав!

Дар як замоне ҳезумкаше мезист, ки зиндагониаш ичорона мезуаши. Вай бо музди ноқизе, ки ҳезумро аз чагалзори наздики чамъ оварда, пуштворақунон ба бозор бурда мефурӯхт, рӯз мезузаронд.

Боре санясин – марди Худоҷӯе, ки аз роҳ мезуаши, уро ҳангоми ин гуна кор дид ва маслиҳат дод, ки ба нештари чангзор равад:

— Ба неш рав, ба неш рав! Ҳезумкаи ба маслиҳати ӯ гуш андохта, ба чангал даромад ва каме неш рафт ва дарахтҳои сандалиро дид. Вай аз ин бозёфти худ бисёр шод гардид, дарахтро бурид ва чи қадаре, ки бардошта тавонад, ҳамроҳ гирифт, онро дар бозор ба пули нағз фурӯхт. Баъд ба ҳайрат афтод, ки барои чӣ саниясини меҳрубон ба ӯ нағзфт, ки дар чангал дарахти сандал ҳаст,



балки оддиякак маслиҳат дод, ки фақат ба неш равад.

Рӯзи дигар вай то ҳамон дарахти буридааш расида, боз ба неш рафт ва кони мис ёфт. Вай ҳар

чӣ қадаре, ки бардошта метавонист, бо худ мисро гирифта, онро дар бозор фурӯхт ва соҳиби пули зиёде шуд. Рӯзи дигараш вай боз ба неш-

тар рафт ва резу чоши нуқраро ёфт.

Боз рӯзҳои дигараш вай тилло, алмос ёфт ва ниҳоят соҳиби сарвати қалоне шуд.

Айнан ҳамин хел аст вазъи одаме, ки ба сӯйи дониши ҳақиқӣ мешинобад: агар вай дар бобати ҳақду талоши худ боз наистад, аз соҳиби баъзе комёбиҳо шудан қувват сирад, вай, охиру охирон, бой-игарии дониши ҷовидон ва ҳақиқатро меёбад. Зеро илму маърифат сарвати бебаҳои инсон аст.

«Ҳафт бор афти, ҳафт бор хез!». Дар таҳия ва тарҷимаи Бахтиёри Чумъа ва Нарзинҷод Саидова

HAFTALIK DOIRASIDA Sport musobaqalari o'tkazildi



«Fuqarolik jamiyati haftaligi» doirasida SOS bolalar mahallalari Samarqand filialida viloyatdagi nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida futbol, shaxmat, shaxka bo'yicha musobaqalar tashkil etildi.

Viloyat hokimligi, adliya boshqarmasi, Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining viloyat bo'limi hamda O'zbekiston NNTlari assotsiatsiyasi viloyat hududiy bo'linmasi tomonidan uyushtirilgan musobaqalarda 15 ta NNT dan 150 nafardan ziyod ishtirokchi bellashdi. Shaxmat musobaqasida viloyat teleradikompaniyasi muxbiri Zamon Eshonqulov, shaxka bo'yicha viloyat karlar jamiyati vakili Abdullo Mustaqimov g'oliblikni qo'lga kiritdi. Jamoaviy o'yin — futbolda viloyat adliya boshqarmasi jamoasi barchadan ustun keldi. Musulmonlar idorasi viloyat vakilligi hamda Yoshlar ittifoqi jamoalari keyingi sovrinli o'rnlarni qo'lga kiritishdi.

— Prezidentimizning 2024-yil 26-avgustdagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan bunday tadbirlarga alohida e'tibor qaratilmoqda, — deydi Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi viloyat bo'limi rahbari Doston Malikov. — Madaniy, sport musobaqalari, intellektual o'yinlardan iborat tadbirlarni o'tkazishdan maqsad NNTlar bilan hamkorlikni mustahkamlashdan iboratdir. Bunday tadbirlar xodimlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini mustahkamlash, ommaviy sportni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Musobaqa g'oliblariga tashkilotchilarning diplom, medal hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

SAMARQAND MUASSIS: Samarqand shahar hokimligi

Muharrir v.b: Olim SONNIBOYEV Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 06.09.2012-yilda 09-05 raqami bilan qayta ro'yxatga olingan. Indeks: 5505 Gazeta tahririyat matbaa bo'limida terildi va sahifalandi. Tahririyat matbaa bo'limi O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2.06.2017-yilda 18-3959 raqami bilan ro'yxatga olingan. Gazeta «Noshir Iyuks» MChJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.



MANZIL: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy. TELEFONLAR: +998 66 233-58-40, +998 66 233-67-79. Gazeta haftaning payshanba kuni chiqadi. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar muallifga qaytarilmaydi. Sotuvda erkin narxda. Navbatchi: Alisher ISROILOV Sahifalovchi: Bekzod MUSURMONOV. Boshig'a topshirish vaqti: 21.00. Boshig'a topshirildi: 21.00. Buyurtma: 448 Adadi: 3 000 nusxa.